

Olimxon



Olimxon

(? – 1810-y.y)

(1801-1810)

Qo‘qon xoni. **Minglar** sulolasidan. Norbo‘tabiyning o‘g‘li. Uning davrida saltanat hududini kengaytirish davom ettiriladi. U Ohangaron, Chimkent, Sayram, Toshkent viloyatining hammasini, Rossiyaga boruvchi karvon yo‘llaridagi muhim manzilgohlarni zabt etadi. U Buxoro amirligiga qarshi turishga kuchi yetajagini ko‘rib xon unvonini qabul qiladi, davlati esa **Qo‘qon xonligi** deb atala boshlandi. Poytaxt – Qo‘qonning siyosiy ahamiyati oshgan. Olimxon tog‘li tojiklar: qorateginlar, sho‘g‘nonliklar, badaxshonliklar, eroniylar va boshqalardan iborat yollanma qo‘shin tuzgan. Bu qo‘shin hokimiyatni markazlashtirish uchun kurashda uning tayanchi bo‘lgan. Olimxon davrida Rossiya bilan 1-marta savdo aloqalari o‘rnatilgan. Olimxon diniy sohada ham o‘zgarishlar qilishga intilgan, xususan, diniy unvon hisoblangan “eshon”ni bekor qiladi, kambag‘al, bechoralarga va qalandarlarga yer maydonlari va chorva beradi, shu bilan ularni ijtimoiy-foydali mehnatga jalb qiladi. Ayrim diniy arboblarni imtihon qiladi va fosh qilinganlarni jazolaydi. Ulamolar uning bu hatti-harakatlaridan norozi bo‘ladilar. Uning Toshkentdaligidan foydalanib, fitna uyushtiradilar, u o‘ldiriladi, deb mish-mish tarqatadilar. Taxtga uning ukasi **Umarxon** o‘tkaziladi. Olimxon xiyonatni bilib qolib, qisqa yo‘l bilan Qo‘qonga jo‘naydi. Yo‘lda qo‘yilgan pistirma Olimxonni otib o‘ldiradi.

Qo‘qon xonligining mavqei ayniqsa Olimxon zamonida yuksaladi. Avvalo mazkur hukmdor xonlik maqomini qabul qilgani bilan mashhurdir. Minglarning undan keyingi namoyandalari ham xon maqomida bo‘lganlar. Shu sababdan ham 1709-1876 yillari markazi Farg‘ona vodiysi

hisoblangan va ninglar nomi bilan bo'g'liq siyosiy birlikni Qo'qon xonligi deyish odat tusiga kirgan.

Olimxon Qo'qon xonligining kuchayib borishida o'zini ko'rsatganlardan biridir. 1805 yili u Xo'jandni egallab, yuqorida aytilganidek, Farg'ona vodiysi uchun strategik ahamiyat kasb etgan mazkur chegarani uzil-kesil xonlik tarkibiga kiritadi. 1809 yili esa XVIII asr oxirlaridan boshlab mustaqil bo'lib olgan va shayx Xovand Tohur (hozirda Shayxontohur nomi bilan mashhur XIV asrning ko'zga ko'ringan din peshvolaridan) avlodlaridan bo'lmish Yunusxoja (1784-1801) yetakchilik qilayotgan Toshkent viloyatini ham Qo'qonga bo'ysuntirishga erishadi. Natijada Sayram va Chimkent tomonlarga qarab siljish imkoni tug'iladi. Shu tariqa u Turkiston (Yassi) va Avliyo otagacha bo'lgan yerlarda harbiy yurishlar uyushtiradi.

Olimxon harbiy islohot o'tkazib, Xo'jandni, Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysuntirdi. Natijada, Rossiya bilan savdo yo'li ochiladi. U o'z davlatini 1805 yili rasman **Qo'qon xonligi** deb e'lon qildi, o'ziga esa "**xon**" rutbasini oldi va uni rasman **Olimxon** deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan nisbatan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi. Natijada, ular Qo'qonda «Olimxon Toshkentda o'ldi» deb mish-mishlar tarqatishadi va uning ukasi Umarbekni xon deb e'lon qiladilar. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga bormoqchi bo'ladi, ammo, yo'lda Oltiqush mavzeida andijonlik Qambar mirzo sheriklari bilan Olimxonni otib o'ldiradilar.

2023-11-05 19:25:21